

Ayollar va bolalarning tazyiq va zo'ravonlikdan himoyasi yanada kuchaytiriladi

2026 4 March

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-mart kuni ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini yanada kuchaytirish, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish yuzasidan takliflar hamda yangi tashabbuslar bilan [tanishdi](#).



Taqdimotda keng jamoatchilik, soha ekspertlarining takliflari hamda ilg'or xalqaro tajriba asosida muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tayyorlangan tashabbuslar ko'rib chiqildi;

✂ shahvoniy shilqimlik uchun belgilangan 5 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosini qat'iyalashtirish;

✂ pedofillar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazoni belgilash;

✂ Jinoyat kodeksining 118- va 119-moddalaridagi jinsiy jinoyatlarni voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etgan mahkumlarni manzil-koloniyalarga

o'tkazmaslik;

✂ Jinoyat kodeksining 6 ta moddasidagi jinsiy jinoyatlar bo'yicha ishlarni tergov qilish vakolatini ichki ishlar organlaridan prokuraturaga o'tkazish;

✂ shahvoniy shilqimlik bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlikka oid materiallarda jinoyat alomatlari mavjud emasligi bo'yicha prokuror qarorini olish shartligi;

✂ ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlari bilan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan advokatlar, tergovchi va sudyalalar shug'ullanishi;

✂ zo'ravonlikdan jabrlangan va himoya orderi berilgan xotin-qizlar himoyasini kuchaytirish maqsadida ularning telefon qurilmalariga maxsus "SOS" ilovalarini o'rnatish, bunda chaqiruv tugmasi bosilganda 5 kilometr radiusdagi ichki ishlar xodimlari 10 daqiqada manzilga yetib kelishi va boshqalar.

Foto: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Axborot xizmati